

- DOC, PDF kabi matnli hujjatlar bilan tanishish. Bu o'quvchi va talaba, qolaversa kitobsevar ko'zi ojizlar uchun elektron kitoblarni o'qishda ayni muddao;
- Dastur bilan brauzer orqali istalgan saytga kirish;
- Qaysidir harakat uchun yorliq chiqarish;

Albatta bular hammasi emas. Ko'zida nuqsoni bo'limgan kishilar ushbu dasturga muhtojlik sezmaydilar. Dastur faqat ko'rishda muammosi bo'lgan kishilar uchun yaratilgan. Dasturga qiziqqan bo'lsangiz va batafsil ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz Google yordamning rus tilidagi qo'llanmasini tavsiya qilaman.

Qanday qilib Talkbackni yoqish.

Talkback android bazali aksariyat telefonlarda standart o'rnatilgan bo'ladi. Dasturdan foydalanish uchun yoqib qo'yish kerak. Dasturni faollashtirishni ko'pchilik rus tili paketidagi menyudan foydalanayotganligini inobatga olib rus tilidagi buyruq bandlari bilan tushintiraman. Smartfoningiz menyusidan "Настройки" bandini oching. Ro'yhat orasida Talkback bandi bo'lsa ushbu bandga kiring va "Выключена, изменить" tugmasini bosing va "OK" bilan tasdiqlang. Dastur ishlashni boshladi. Agarda "специальные возможности" ichidan Talkback bandini topa olmasangiz uni o'rnatish kerak bo'ladi. Dastur 7.2.0 versiyasini sayt katalogidan ko'chirib olib, yoki so'nggi versiyasini Play Market do'konidan bepul olib o'rnatishingiz mumkin. Dastur boshqa ilovalar kabi odatiy tarzda o'rnaydi.

Qo'shimcha sintezator o'rnatish

Dasturni ishga tushuramiz. Ba`zi smartfonlarda sintezator rus tilida yongan bo'lsa, ba`zilarida ingliz tilida yonishi mumkin. Endi smartfonimizga o'zbekcha sintezator yaratilmagani bois o'zbek tili aksentiga yaqin bo'lgan "Aleksandr" ovozini o'rnatamiz. Ushbu RH Voice sintezatori ushbu sayt katalogidan ko'chirib oling va arxivdan chiqarib barcha RH Voice-language-Russian –v2.0.apk, RHVoice-v 0.5 apk RHVoice-voice-Russian-Aleksandr-v1.0.apk kabi ilovalarni o'rnatiting. Endi oxirgi ish qoldi. Quyidagi bandlarga ketma-ket

kirib,

Меню/Настройки/Специальные возможности/Talkback/Настройки/Настройки синтеза речи/Предпочитаемый модуль/ royat orasidan RHVoice bandiga belgi qo'ying va "OK" bilan tasdiqlang. O'qish tezligini va ohangini o'zingizga moslab olishingiz ham mumkin. Albatta, "Aleksandr" ovozidan tashqari juda ko'plab sintezatorlar mavjud, bu haqda boshqa maqolalarda ma'lum qilamiz.

Hozirgi kunda JAWS, NVDA dasturiy ta'minotlar orqali ko'zi ojiz o'quvchilarga axborot texnologiyalari bo'yicha ma'lumotlar berib kelinmoqda.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim uchun NVD, JAWS bilan o'rganuvchilarni aniqlaydi. JAWS va NVDA ning asosiy farqlari

Ikki dasturiy ta'minotning ham maqsadi bir – ya'ni ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi kishilar uchun kompyuterdan foydalanishda yordamchi bo'lish. Ularning birini ustun qo'yish fikridan yiroqman. Shunday bo'lsa-da, ularning bir-birini takrorlamagan ba'zi xususiyatlarini ko'rib chiqiqshimiz mumkin.

Dasturni topish va yuklab olish bo'yicha farqlar

Dasturni yuqorida keltirilgan o'zining rasmiy saytlaridan topish mumkin. JAWS rasmiy saytida demo versiyasini taqdim etadi. Demo versiyasida dastur kompyuterni haer gal qayta ishga tushirilganda 40 minutgacha ishlaydi va to'liq ishlashi uchun litsenziya sotib olish kerakligini ogohlantiradi. Anglaganingizdek, JAWS pullik hisoblanadi. Lekin internet sahifalarida uning litsenziyasini bosuvchi vzlom qilingan versiyalari ham bor. Dastur hajmi yangi versiyalarida 500mb dan oshadi. NVDA dasturini esa rasmiy saytidan bepul yuklash mumkin, hajmi 20 mbdan biroz oshadi. Dasturni qulay ishlashi uchun qo'shimcha nutq sintezatorlarini mustaqil ravishda o'rnatish, NVDAning asosiy xususiyatlarini kengaytirish kerak. Ushbu manzilda qo'shimcha komponentlar o'rinni oлган.

Ayniqsa, asosiy umumiyoт o'rta ta'limga, kasb-hunar maktablari darajasida e'tiborga loyiqdir:

- birinchidan, asosiy maktabga mo'ljallangan, ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarlar uchun na'munali moslashtirilgan asosiy ta'limga dasturlari mavjud emas;
- ikkinchidan, didaktika va ta'limga qoidalariga javob beradigan o'quv - uslubiy komplekslarni ishlab chiqish zarur;
- uztoz-shogirdlari bilan bo'lgan uzlucksizligi, NVD, JAWS yangi versiyalari va asosiy umumiyoт ta'limga dasturlarining mazmuni;
- uchinchidan, rejalashtirilgan natijalar dasturlarini asosiy umumiyoт ta'limga darajasida o'zaro bog'lash talab etiladi;

Bularning barchasi asosiy umumiyoт ta'limga darajasida ta'limga va ko'rish qibiliyati zaif bo'lgan o'quvchilarning mazmunini tahlil qilish zarurligiga olib keldi.

Shu bilan birga, quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. Asosiy mакtab darajasida ko'zi ojiz va zaif bo'lgan o'quvchilarga nisbatan qo'llaniladigan Imaging jarayonini tashkil etishni belgilovchi nazariy asoslarni tahlil qilish.
2. Eng maqbul ta'limga yo'nalishlarini yaratish, ushbu mакtab o'quvchilari uchun har bir o'quv mavzusi chegaralarida loyihalashtirishni talab qiluvchi dolzarb masalalarni aniqlash.
3. Hammasi uchun umumiyoт va o'ziga xos muammoli joylarni ajratish asosiy umumiylig darajasida amalga oshiriladigan ta'limga fanlari ta'limga. Ushbu maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun analitik qo'llanildi usullari: ilmiy adabiyotlarni retrospektiv tahlil qilish, kontentni tahlil qilish davriy matbuot va materiallar ilmiy-amaliy anjumanlar tadqiqot muammolari bo'yicha.

Ko'zi ojizlar va ko'rish qibiliyati zaif bo'lganlar bilan ishlash usullari, yondashuvlari va texnikasi ushbu talablarga javob beradigan mакtab o'quvchilari umumiyoт va maxsus - didaktikani olish.

O'tgan yilga qadar men JAWS ning vzlom qilingan versiyalaridan foydalanib kelar edim. JAWS dasturlari bo'yicha ushbu blogimda "Gapiruvchi kompyuterlar yoxud JAWS dasturi haqida va JAWS dasturidan keng foydalanish" maqolalarini yozgan edim. Sababi, JAWS sintezatorlar bilan yaxshi moslashadi deb hisoblar edim. Ammo "Milena" sintezatorini NVDA bilan birga eshitganidan so'ng ushbu dasturni afzal ko'ra boshladim. Hozirda NVDA ning so'nggi versiyasini "Milena" sintezatori bilan ishlatib kelmoqdaman.

Xulosalar

Har ikki dasturning ham o‘z muxlislari va foydalanuvchilari keraklicha topiladi. Hattoki ushbu dasturlardan tashqari ham boshqa ekran diktori mavjud. Lekin ularning imkoniyatlari hali raqobat darajasida emas. NVDA paydo bo‘lgunga qadar JAWS eng ko‘p so‘ralgan dastur bo‘lganligini ham unutmaslik kerak. Qaysi dasturni bu o‘z ixtiyoriningizga bog‘liq. Hozirgi kunda Farg‘ona ICHSHUI kasb-hunar mакtabimiz Kutubxonashunoslik yo‘nalishida o‘quvchilar NVDA va JAWS dasturlari orqali axborot texnologiyalari o‘zlashtirmoqda. Albatta bu dasturlar ruscha versiyada. Endilikda dasturchilarimiz o‘zbekcha versiyalari yaratishga xarakat qilinishi ertangi imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun axborot texnologiyalarini kompyuter orqali o‘rganish qulayligi oshishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Полякова Н.П. “Анализ содержания обучения слепых и слабовидящих школьников на уровне основного общего образования за последние десять лет”

https://phsreda.com/ru/article/75114/discussion_platform

2. <https://baxtiyor.uz/jaws-dasturidan-keng-foydalanish/>

3. <https://lex.uz/docs/-5032128>

4. https://nsportal.ru/npo-spo/informatika-i-vychislitelnaya_ekhnika/_library/_2018/_07/26/obuchenie-lits-s-ogranichennymi

5.https://nsportal.ru/download/#https://nsportal.ru/sites/default/files/2018/07/26/dokla_d_obuchenie_ovz_na_urokah_informatiki_2017_dlya_interneta.doc

6.<https://dislife.ru/articles/view/196252>

**NEMIS TILIDA GIPERBOLA ORQALI IFODALANUVCHI FRAZEOLOGIZMLAR VA
ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

Jurakulova Ozoda To'raqul qizi

O'zMU Lingvistika

(nemis tili) mutaxassisligi 2–kurs magistranti

Ismoilov Y.N

Ilmiy rahbar: f.f.n., dot.

Til har bir xalqning e'tiqodi, madaniyati va dunyoga munosabatini ifodalovchi eng muhim omildir. E'tiqod, dunyoqarash, madaniyat bir-biriga o'xshamasligi sababli turli xalqlarning maqollari, matallari bir xil emas. Eng ko'zga ko'rigan tilshunos olimlardan biri Nida xalq madaniyatini o'rganishda uning tilini ham o'rganish muhim, degan edi. Uning fikricha, til va madaniyat bir vaqtning o'zida birgalikda ishlab chiqilgan o'zaro bog'liqlik tizimidir. U buni quyidagicha izohlaydi: Madaniy omillar til bilan chuqur chambarchas bog'langan va shu tariqa til shakllarida morfologik va strukturaviy jihatdan o'z aksini topadi. Har bir tilning frazeologiyasi dunyoning obrazli tasvirlarini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Frazeologizmlarni bilish xalq tarixi va xarakterini chuqurroq anglash imkonini beradi. Frazeologiya tushunchasini birinchi marta fransuz tilshunoslik maktabi vakili tilshunos Sharl Balli shakllantirgan. U Frazeologiyani "tilga mustahkam kirgan birikmalar" deb atagan. L.P.Smit, A.Makkay, J.Seidlou va V.Mak Mordi kabi ingliz va amerikalik tadqiqotchilar Frazeologiyani o'rganish bo'yicha o'z asarlarida "idioma" atamasini qo'llashadi. Idioma deganda ular qiymati uning alohida elementlari qiymatidan kelib chiqmaydigan iborani anglatishini takidlashadi. Frazeologiya - idiomalar haqidagi fan deb ham e'tirof etilgan.

Frazeologiya atamasi ingliz filologiyada ilk marta 1558 yilda ingliz adabiyotshunosi Neander tomonidan qo'llanilgan. Neander adabiy asarlarni tarjima qilishda ushbu atamadan foydalanishga majbur bo'ldi. Frazeologik materialarning katta qismi lug'at va boshqa manbalarga kiritilgan bo'lsa-da, frazeologiya nazariyasiga oid tadqiqot ishlari tilshunoslikka oid manbalarda kam uchraydi. Hozirgacha nemis frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida o'rganilib kelinmoqda. Keyinchalik frazeologiya leksikologiyaning bir tarmog'i sifatida o'rganila boshlandi. Tilshunoslik rivojlanishi bilan hozirgi vaqtida frazeologiya ko'pchilik tillarda tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida qabul qilinib, tadqiq qilinmoqda. Aytish joizki, Sharqiy Yevropa va Rossiyaning bir qator olimlari o'z asarlarida bu sohani tadqiq qilganlar. Ko'p natijalarga erishildi. Fransuz olimi Sharl Balli fanga frazeologiya atamasini kiritgan bo'lsada, bu atama G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslari asarlarida qo'llanilmagan. Sharl Balli frazeologiyani stilistikada ishlatadi. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida o'rganish masalasi rus tilshunosi E.D.Polivanov